asarlarida, xususan, “Boburnoma”da ota-onaga hurmat, farzandlarga mehr va mas’uliyat, qarindoshlarga sadoqat kabi fazilatlarni doimiy ravishda ta’kidlagan. Oilaviy qadriyatlar uning shaxsiy hayotida nafaqat ma’naviy poydevor bo‘lib xizmat qilgan, balki davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlarida ham o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Bobur merosi nafaqat tarixiy va siyosiy, balki ma’naviy, axloqiy va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Uning oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibori bugungi kunda yoshlar tarbiyasi va oilaviy ma’naviyatni rivojlantirish masalasida o‘rnak sifatida foydalanilishi mumkin [8].

Takliflar. 1. Tarixiy manbalarni kengroq o‘rganish – Bobur hayoti va faoliyatiga oid boshqa birlamchi manbalar va maktublar tahlil qilinib, oilaviy qadriyatlar mavzusi yanada chuqurroq o‘rganilishi lozim.

2. Pedagogik tadqiqotlar olib borish – Boburning farzandlar tarbiyasiga yondashuvi pedagogik jihatdan tahlil qilinib, zamonaviy tarbiya uslublariga tatbiq etilishi mumkin.

3. Badiiy talqin va tarbiyaviy materiallar yaratish – Bobur merosidagi oilaviy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish maqsadida darsliklar, hikoyalar va badiiy asarlar tayyorlash tavsiya etiladi.

4. Milliy qadriyatlar bilan bog‘lash – Bobur merosidagi oilaviy va ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy oila tarbiyasi va milliy an’analarga bog‘lab o‘rganish kerak.

5. Xalqaro tadqiqotlar olib borish – Bobur shaxsiyatini va oilaviy qadriyatlarini boshqa mamlakatlar tarixiy va pedagogik tadqiqotlari bilan solishtirish orqali global kontekstda baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бабур З.М. Бабурнома. Пер. с узб. О.Исмоилов. Ташкент, “Шарқ”, 2007 (Перв. изд. XVI в.).

(2). Университет истории Узбекистана. Бабур хаёти ва ижоди. Тарихий тадқиқот. Ташкент, “Фан”, 2010.

(3). Каримов А. Ўзбекистон тарихи. Ташкент, “Шарқ”, 2005.

(4). Раҳмонов С. Бобур шахсияти ва давлат бошқаруви. Тошкент, “Академнашр”, 2012.

(5). Турсунов Б. Ўзбек адабиёти тарихи. Ташкент, “Фан”, 2008.

(6). Қодиров П. Юлдузли тунлар. Ташкент, Ғафур Ғулом нашриёти, 1999.

(7). Авлоний А. Тарбия масалалари. Ташкент, Ўзбекистон “Педагогика” нашриёти, 2003.

(8). Исломов Р. Жадид олимлар асарлари. Педагогик тадқиқотлар, Тошкент, “Фан”, 2015.

(9). Comparative analysis of Zahiriddin Muhammad Babur’s inner experiences in the works of harold lamb and primqul qodirov. Lobar Avazova, International Scientific Symposium “From Common Historical Roots to Strategic Cooperation”, dedicated to the 30th anniversary of the establishment of diplomatic relations between Azer-baijan and Uzbekistan.

Dosxodjaeva Amangul (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti «Umumiy pedagogika» kafedrasi katta o‘qituvchisi)

QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARI ASOSIDA OILADA BOLALARNI MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq ertaklarining oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati yo’ritilib, ular orqali xalollik, mehnatsevarlik va hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishning samarali jihatlari asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *qoraqalpoq xalq ertaklari, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, oila tarbiyasi, bolalar, rostgoylik, mehnarsevarlik, shaxsni shakllantirish.*

ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Аннотация. *В данной статье раскрывается значение каракалпакских народных сказок в духовно-нравственном воспитании детей в семье, а также обосновываются эффективные аспекты формирования таких качеств, как честность, трудолюбие и уважение, посредством их использования.*

Ключевые слова: *каракалпакские народные сказки, духовно-нравственное воспитание, семейное воспитание, дети, честность, трудолюбие, формирование личности.*

THE IMPORTANCE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY BASED ON KARAKALPAK FOLK TALES

Annotation. *This article highlights the significance of Karakalpak folk tales in the spiritual and moral upbringing of children within the family context, and substantiates the effective role of these narratives in cultivating such qualities as honesty, diligence, and respect.*

Keywords: *Karakalpak folk tales, spiritual and moral education, family upbringing, children, honesty, diligence, personality development.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonni barpo etishning poydevori hisoblangan uchinchi Renessans davrida komil inson shaxsini shakllantirish davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuk, milliy qadriyatlarga sadoqatli va keng dunyoqarashga ega etib tarbiyalashda oila muhiti va u yerda qo‘llaniladigan tarbiya usullari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda xalq og‘zaki ijodi durdonalari, xususan, asrlar davomida xalqimizning hayotiy tajribasi va odob-axloq normalarini o‘zida jamlagan qoraqalpoq xalq ertaklari bebaho pedagogik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Qoraqalpoq xalq ertaklari xalqning milliy o‘zligi, orzu-umidlari, adolat, jasorat va mehnatsevarlik haqidagi qarashlarining ko‘zgusidir. Ertaklar vositasida bolalarga insoniy fazilatlarni tushuntirish, ularda ezgulik va yovuzlikni farqlash ko‘nikmasini hosil qilish qadimiy va sinalgan tarbiya usullaridan biri sanaladi. Global axborot almashinuvi jadallashgan bugungi kunda bolalarning ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish, ularni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilishda ertaklarning o‘rni yanada ortib bormoqda.

Asosiy qism. Xalq og‘zaki ijodiga mansub ertaklar bolalarni ilk yoshidanoq quvonchli tuyg‘ularga oshno qiladi. Bola ertak qahramonlari bilan birga olis-olislarga «sayohat qiladi». U erdagi hayot bilan tanishadi. Ertak uning aqlini charxlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o‘stiradi. Ertaklardagi ravon, obrazli ifoda uslubi bola nutqini rivojlantiradi. Yorqin, hayotiy obrazlar uning hissiyotiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Bola aqlli, oqko‘ngil qahramonlar bilan tanishadi, ular falokatga yo‘liqqanida qayg‘uradi, g‘alaba qilishganida, yovuz kishilarni jazolaganlarida xursand bo‘lishadi. Ertakning ishonchli axloqiy g‘oyalari bolani fikrlashga, o‘z xatti-harakatini sevimli ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bilan qiyoslashga undaydi, qahramonlar timsolida bolalar qo‘rqmas va rostgo‘y bo‘lishga o‘rganadilar. O‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yish, unga erishish uchun harakat qilish, turli to‘siqlarni yengib o‘tish, do‘stlariga yordam berish, o‘rtoqlariga sadoqatli bo‘lish kabi sifatlarni bosqichma-bosqich egallab borishadi. Ertak bolaning yoshiga mos bo‘lishi zarur. Farzand bilan birgalikda ota-onalar ham ertakka mos chizilgan sujetli rasmlarni tomosha qilishlari, ularni sharhlab berishlari lozim. Bolaga unchalik murakkab bo‘lmagan savollar berish, ertak yoki rasm mazmuni yuzasidan xulosalar chiqarishga undash amaliy pedagogik jihatdan juda foydali bo‘lib, bolaning xotirasi va diqqatini rivojlantiradi, hayotga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Bolaning hayotiy tajribasi kamligi tufayli ertak voqealari hayotiy haqiqat tarzida qabul qilinadi.

Ertek (ertak)lar xayoliy va hayotiy uydirmalar hayot haqiqati tarzida tasvirlanganligi, tilsim va sehrli vositalarga asoslanishi, voqea-hodisalarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirmalarning turli xil namunalari ta‘limiy-estetik vazifani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, sujet chizig‘ida tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra, ertaklar 2 guruhga – xayoliy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklar, hayotiy uydirmalar asos bo‘lgan ertaklarga bo‘linadi. Xayoliy uydirmalar asosidagi ertaklar sujeti mo‘jizali, sehrli, hayotiy uydirmalarga asoslangan ertaklar sujeti esa real voqea-hodisalar tasviri kabi taassurot qoldiradi.

Xalq og‘zaki ijodida qadimdanoq hayvonlar haqida ajoyib ertaklar yaratilgan. Ma‘lumki, bolalarda yoshligidan qiziquvchanlik, o‘zlariga notanish narsalarni bilishga ishtiyoq kuchli bo‘ladi. Shuning uchun yosh bolalarga tavsiya qilinadigan ertaklarning g‘oyasi sodda va tushunarli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar bu kabi ertaklarda hayvonlarni insonlarga vafodor do‘st yoki aksincha, ayyor, riyokor, g‘anim, vahshiy kuchlar timsoli sifatida idrok etadilar. Ota-onalar shu xildagi asarlar mazmunidan kelib chiqadigan falsafiy g‘oyalarni sharhlab berishlari lozim. Masalan, laqmalik va vahshiylik bo‘ri, ayyorlik va tilyog‘lamalik tulki timsollarida ifodalanishi to‘g‘ri tushuntirilishi zarur. Voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan «Egiz bala» («Egizak bola»), «Genje batır» («Kenja botir») kabi sehrli ertaklarda pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi. «Qulaqbay» («Quloqboy»), «Qırıq awız ótirik aytqan shopan» («Qirq yolg‘on aytgan cho‘pon») va boshqa ertaklar komik, ba‘zilari hatto hajviy xarakterga ega. «Zalım patsha» («Zolim podshoh»), «Muradina jetken ashıqlar» («Murodiga etgan oshiqlar»), «Aqıllı hayal, aqmaq patsha» («Aqlli ayol va ahmoq podshoh»), «Shesheń bala» («Chechan bola») kabi ertaklarda ko‘proq zulm va adolatsizlik qoralanadi.

«Úsh ag’ayınlı batırlar» («Uch og‘a-uka botirlar») ertagi ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag‘al, lekin hayot tajribalariga boy shaxs. Botirlar obrazida axloq-odobning yuksak namunasi – odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinadi. Uch og`a-inining yo‘lbars, ajdarho va qirq qaroqchilarni o‘ziga mavtun etishi kichkintoylarni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, o‘spirinlik davrida bolalar o‘zidan kattalar hayotiga tezroq qo‘shilishni, buning uchun o‘zlariga ideal tanlashni orzu qiladilar. Ularda ruhiy va ma‘naviy ta‘sirlanish moyli kuchayadi.

Ertak, rivoyat janrlariga mansub asarlarning bolalar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatishining asosiy sabablaridan biri ularda real voqelikning kichkintoylar yoshi va dunyoqarashiga mos tarzda talqin qilinishidir. Bola ruhiy olamiga yaqin, kuchli va adolatli insonlar, yoqimtoy jonivorlar xalq og'zaki ijodi qahramonlari sifatida namoyon bo'ladi. «Eki dos» («Ikki do'st»), «Qápestegi qustı tapqan bala» («Qafasdagi qushni topgan bola»), «Ush ag'a-ini ónermentler» («Uch og'a-uka hunarmandlar») kabi xalq ertaklari bolalarda mehnatsevarlik, oliyjanoblik xislatlarini shakllantiradi va mardlik, dovyuraklikka o'rgatadi.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida alohida o'ringa ega ertaklarda xalqning xayoliy armonlari baxtli yakun topib, ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qiladi. Ertaklar bir davr uchungina ma'naviy oziq bo'lib qolmay, odamzodning asrlar davomida boshidan kechirgan uzoq tarixi, orzu-armonlari, ijtimoiy hayoti, odobaxloqqa doir tushunchalarini avloddan avlodga yetkazuvchi, davr bilan hamnafas o'lmas obidalardir.

O'quvchilar xalqimizning betakror so'z xazinasi mujassam ertaklarni oilada hali go'dakligidanoq tinglab ulg'aysa, ulardagi qahramonlarning xulq-atvori, qilgan ishlari haqida mustaqil fikr yurita oladigan bo'ladilar. Turmushda uchraydigan hayotiy va murakkab ijtimoiy munosabatlar yuzasidan dastlabki tushunchaga ega bo'ladilar. Shuningdek, adabiy janrlar va ularning o'zaro bog'liqligi, umumiy belgilari haqidagi tasavvurlari shakllana boradi. Masalan, ertaklardagi «Karomatli dasturxon», «Etim qizning to'yi» singari epitetlar «Oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor», «Chiroyli qiz» singari qiyoslashlar «Ko'zni ochib yumguncha, esgan shamol tinguncha», «Uchar gilam», «Dev, parilar» singari giperbola takrorlashlar, «Bor ekanda, yo'q ekan», «Uch kecha-yu uch kunduz to'y berdi» kabi an'anaviy boshlanma va tugallanmalar bilan tanishsa, maqol, topishmoq va qo'shiqlar tahlili orqali kichik lirik turga oid tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Ertaklarda ziddiyatlar bosqichma-bosqich echib boriladi. Bu xildagi asarlarda haqsizlik va adolatsizlikka nisbatan qarshi kurash tuyg'usi kuchlidir.

Har bir yosh bosqichi o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda yanada samarali natijalarga erishish uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ushbu kontekstda ishlashda individual yondashuv ham juda muhim shartdir. Bu bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda va unga individual yondashuvi bolaga dunyo haqida to'liq tasavvur berishga imkon beradi. Yana bir muhim shart – oilaviy kitobxonlik. Bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda nafaqat o'qituvchi va bola o'qiydigan bog'cha, balki oila ham katta rol o'ynaydi. Oila bolaga birinchi hayot tajribasini beradi, u yerda u birinchi taassurotlarni oladi. Shuning uchun bu ish oila ishtirokisiz samarali bo'lmaydi [1;173-b.].

Oilada ota-onalar, opa-singillar, aka-ukalarning folklor doirasidagi tushunchalarga ega bo'lishi, bolalar bilan xalq og'zaki ijodi yuzasidan bo'ladigan muloqotlar jonli kechishiga yordam beradi.

O'quvchilarning qarashlari shakllanishida xalq og'zaki ijodi qahramonlarining haqiqatgo'ylik, odobaxloq, vatanparvarlik, mardlik, rostgo'ylik xususiyatlari ahamiyatlidir. Qahramonlarning yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik o'rtasidagi kurashlari o'smirlar psixologiyasiga, uning mustaqil fikr yuritib, yaxshi va yomonni farqlay olishiga yordam beradi.

Oilada bolalarga xalq og'zaki ijodiga mansub asarlarda fantastikaning real hodisalar bilan bog'lanib ketganligiga doir tushunchalar singdirilib borilishi yaxshi samara berishi tabiiy. Bu borada qoraqalpoq xalq ertaklarining ijtimoiy, siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, mazmunining serqatlamligi bilan kishi ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladi. Sababi, unda xalq donoligi, ko'p asrlik tajribasi va baxtli hayotga erishish g'oyalari yo'rqin obrazlar orqali tasvirlanadi.

Dasturxon atrofida, oilada ertaklarni o'qishning muhim jihati shundaki, bolalar ertakning badiiy mazmuni bilan tanishish orqali xalq turmush tarzi yuzasidan dastlabki tushunchaga ega bo'lib boradi. Ertak qahramonlarining ko'z ko'rib, quloq eshitmagan sarguzashtlarining real hayot voqeligi bilan uyg'unlashib ketishi haqiqatdan yiroq emasligiga amin bo'ladi. "Bilimdon bola" ertagida bir kambag'al odam bo'lgan ekan uning ustidan kulib «nochor odam» deb mazax qilar ekan, u vaqtning o'tishi bilan uylanib uyli-joyli va farzandli bo'libdi. Yillar o'tib u farzandini o'qitib voyaga etkazadi. Ko'shnilari kambag'al yigitning farzantini o'qitganligini ko'ra olmay, shuncha pulni farzandingizga ishlatib nima qilasiz? Boshqasi esa o'qib bilimdon bo'larmidi degan so'zlar aytilardi. Otasi esa koshnilarning gapiga parvo qilmasdan o'z farzandiga yanada mehrini oshirib pand-nasihatini berishni davom ettira berdi. Elimizga foydasi tegsa undan ortiq baxt bormi deb javob berardi. Vaqtning o'tishi bilan, kambag'alning bolasi avvalgidan ham savodli edi. Unga ko'plagan insonlar kelib, maslahat so'rar edi. Bir kuni kambag'al yigitning ustidan kulib yurgan boylar farzandiga ishi bilan keladi. Qarasa, avvalgi kambag'alning uyi hashamatli bo'lib ketgan. Ular avvalgi kambag'al hozirgi bilimdonning otasidan kechirim so'rab ishlarini aytadi. Kambag'al yigit va uning oilasi hali

bel ketmonlarini tashlamas edi, sababi shu darajaga etishida mehnati tufayli erishganligini koʻrishimiz mumkin. Shunday qilib baxtli hayot kechiribdi [2;294-b.].

Xalq ertaklari o`zining tuzilishi va mazmuniga koʻra, ixcham, eshitishga qulay boʻlganligi uchun ertakchi asar voqealarini oʻzlari koʻrgan odamdek tinglovchi uchun ta'sirli tarzda ijro etgan.

Qoraqalpoq xalq ertagi «Qubili botir»da insonlardagi manmanlik illatining salbiy oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Qubili tengdoshlari orasida oʻzining aqlliligi bilan ajralib turadi. Ertak boshida u toʻy marosimlariga bosh-qosh, uni tinch va osoyishta oʻtkazadigan, xalq uchun xizmat qiladigan, dushmanlardan qoʻrqmaydigan, dovyurak, oddiy qishloq yigiti timsolida tasvirlanadi. Ammo uning oʻziga haddan tashqari bino qoʻyishi, atrofdagilarning unga boʻlgan alohida eʻtibori Qubili botirda insoniylik qiyofasidan chetlatuvchi yomon illat – manmanlikni keltirib chiqaradi. Bu erda muhim bir narsani taʻkidlab oʻtish kerakki, manmanlikning oxir-oqibati voy ekanligi, xalq eʻtiboridan qolishi oʻquvchilar qalbida ertak qahramonlari obrazi orqali shakllanadi. Mazkur ertakda Qubili botir manmanligi tufayli ogʻir vaziyatlarga duchor boʻladi.

Oʻsmirlar ertaklarga hayotdagi hodisalarga ishongandek ishonadilar. Ijobiy qahramonlar bilan hamnafaslik ruhiy olamini boyitadi. Shu narsani ta'kidlab oʻtish kerakki, ertak qahramonlari oʻquvchilarni koʻz koʻrib, quloq eshitmagan qiziqarli sarguzashtlari bilan oʻziga jalb qiladi. Oʻsmirlar ertak mazmunining soddaligi, rang-barangligi, undagi qahramonlarning ziyrakligi, pokligi, chaqqonligi, uddaburroligi, toʻgʻriligi, tilining boyligi va tozaligi uchun yaxshi koʻrishadi. Oquvchilar ertak qahramonlarining quvonch va qaygʻulariga sherik boʻlishadi, ayni paytda, ularda goʻzal fazilatlar shakllanadi va odob-axloq yuzasidan muayyan tushuncha paydo boʻladi.

Ayrim ertaklarda bevafo, ayyor, oʻgay va bemehr onalar timsoli qoralanadi. «Jetim qız hám ógey ana» («Etim qiz va oʻgay ona») ertagida oʻgay ona etim qizning baxtli boʻlishiga hasad bilan qarab, uning ikki qoʻlini bolta bilan choptiradi va uyidan joy bermaydi. Odamlarning gʻamxoʻrligi tufayli qiz yogʻochdan yasama qoʻlga ega boʻladi. Tinimsiz mashqlar natijasida yogʻoch qoʻl oʻz qoʻli darajasiga etadi. Ertak yakunida qiz oʻz sevgani bilan turmush quradi va baxtli hayot kechiradi [3;335–336-b.].

Qoraqalpoq xalq ogʻzaki ijodining yana bir diqqatga sazovor jihati shundaki, unda tarixiy shaxslar va ularning qahramonliklari tasviriga katta o`rin ajratiladi. Ayrim rivoyatlarda el-yurtni himoyalovchi afsonaviy qahramonlar dushmanning oʻqi oʻtmas, qilichi kesmas etib tasvirlanadi. Masalan, «Iskenderdiń shaqı bar» («Iskandarning shoxi bor»), «Xákim Ulıqpan» («Luqmoni Hakim»), «Qırıq qız qala» («Qirq qiz qal'a») kabi ertaklar shular jumlasidandir.

Yakuniy boʻlim. Xulosa qilib aytganda, uchinchi Renessans davrida oilada maʻnaviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda qoraqalpoq xalq ertaklari milliy qadriyatlar, halollik va mehnatsevarlikni oʻrgatuvchi muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Ertaklarni oilaviy mutolaa qilish va ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uygʻunlashtirish bolalarda tanqidiy fikrlash hamda yuksak axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Salimova Sh. «Ertaklar maktabgacha yoshdagi bolalarni maʻnaviy-axloqiy tarbiyalash vositasi». Образование наука и инновационные идеи в мире. 2022, 2-часть.

(2). Каракалпак фольклоры. Коп томлык. 67–76 томлар. Нокис, «Илим», 2014.

(3). Каракалпак фольклоры. 2 том. Каракалпак халык ертеклери. «Каракалпакстан» баспасы, Нокис, 1977.

(4). Отениязова Р. Развитие речи детей на основе каракалпакских народных сказок. 239–245 с. Scientific theoretical and metodical journal. 2025, vol 3.

Maxsudova Shohsanam Muzaffarxo'jayevna (Namangan davlat Pedagogika instituti katta o'qituvchisi; shohsanammaxsudova@gmail.com)

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalaridan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik ta'limdagi o'rni, ularning o'quv jarayonini individuallashtirishdagi imkoniyatlari hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim vositalari bo'lajak o'qituvchilarning didaktik, metodik va texnologik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.*